

---

## Sektor rahbarlari tomonidan mahallalardagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar o'rganilmoqda

Joriy yilning 14 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi G'.Mirzaev raisligida viloyat xokimligida o'tkazilgan "Beshariq tumanida aholi muammolari va ijtimoiy iqtisodiy masalalarni o'rganishda aniqlangan muammolarni bartaraf etish yuzasidan ishchi guruhining 49-sonli yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash yuzasidan Farg'ona shahar "Yormozor" mahalla fuqarolar yig'inida 3-sektor rahbari Anvarjon Mirzaev tomonidan ishchi guruh tuzilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi murojaatlari va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar o'rganilmoqda.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar vakillari tomonidan bildirilgan murojaatlarni ijobiy hal etish choralari ko'rilmoqda. O'rganish davomida ko'chalarda obodonlashtirish ishlarini olib borish, aholiga sifatli elektr ta'minoti, tabiiy gaz va ichimlik suvini yetkazish bo'yicha ham zaruriy vazifalar bajarilmoqda.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-23 09:22:30